

2022-yil 11-noyabr kuni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida “Xitoy Xalq Respublikasida o‘zbek tilining o‘qitilishi” mavzusida Xalqaro ilmiy vebnar bo‘lib o‘tdi. Unda xorijlik va respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zbek tili o‘qituvchilari, o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha malaka oshirayotgan professor-o‘qituvchilar, magistr-talabalar, ilmiy tadqiqotchilar qatnashdi. Aziza Mashrabbekova Vebnarda, avvalo, Janubiy Koreyadagi OTM, xususan, Xankuk chet tillari universiteti (xususiy universitet, Koreya reytingida 8-o‘rin, dunyo reytingida 45-o‘rin, 45 ta til o‘qitiladi) haqida ma‘lumotlarni taqdim qildi. Mazkur universitetda “Markaziy Osiyoni o‘rganish” kafedrasida mavjud bo‘lib, unda o‘zbek va qozoq tillari o‘qitiladi (8 semestr davomida). Bugungi kunda kafedrada 70 dan oshiq talaba o‘zbek tilini o‘rganmoqda.



Ma‘ruzachi o‘z taqdimotida Janubiy Koreyada o‘zbek tilini o‘qitish masalasini o‘z tajribasidan kelib chiqqan holda namoyish etib berdi. U faoliyat turlarini 6 ga bo‘lgan holda har bir faoliyat uchun talabalar uchun foydali va qiziqarli bo‘lgan blis-savollar, topshiriqlar, matnlar, rasmlarni qay yo‘sinda qo‘llash mumkinligini taqdimot qilib berdi. O‘zbekistonlik hamkorlar bilan nashr qilingan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari haqida ma‘lumotlar berildi. Norasmiy va do‘stona ruhda o‘tgan xalqaro vebnarda har ikki tomon uchun foydali bo‘lgan hamkorliklar bo‘yicha kelishib olindi, yangi g‘oyalar muhokama qilindi.



Vebinarada ishtirokchilar ma'ruzachiga ko'plab savollar bilan murojaat qilib, ma'ruza-tadqimotning qizg'in muhokamasida qatnashishdi. Ishtirokchilar ma'ruzachiga taqdimot va yangi ma'lumotlar uchun minnatdorlik bildirib, keyingi hamkorlik rejalariga umid bildirishdi.

